

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA KONTRAST SAN’ATI TASVIRI

Zarina Suyunova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktorant

zarina97suyunova@gmail.com

***Annotatsiya:** Badiiy adabiyot o‘zida insoniy his-tuyg‘u va kechinmalarni ifodalashi bilan boshqa adabiyotlardan farq qiladi. Hayot charxpalagi bir tepaga, bir pastga aylanganidek, hayotda ham har xil vaziyatlar bo‘ladi. Shu vaziyatlar inson umriga mazmun baxsh etadi. Kontrast san’ati hayotimizda ro‘y bergan ziddiyatlarni badiiy adabiyotda tasvirlaydi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani syujeti qiziqarli va izchil tuzilganligi bilan kitobxonlar ko‘nglidan joy oladi. Asar turli xil qarama-qarshilik va ziddiyatlar asosida o‘z maromiga yetadi. Kontrast san’atini Otabek va Homid kurashida, Kumush va Zaynab mojarolarida, shuningdek, muallif qo‘llagan onomastik birliklarning kontrastga bog‘liqligi yoritiladi. Kontrast san’atidan birinchi o‘zbek romani sarlavhasida ham foydalanilgan. Kontrast san’ati asarning qiziqarli bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi.*

***Kalit so‘zlar:** Kontrast, syujetlarasro kontrast, kompozitsion kontrast Otabek, Kumush, Homid, Sodiq.*

Adabiyot tabiat va unda sodir bo‘layotgan har qanday voqea-hodisani so‘zlar vositasida ifodalaydi. Badiiy adabiyot esa inson hissiyotlariga ta’sir etuvchi jimjimador so‘zlardan foyalanadi. Olam va undagi jonzotlar juft-u o‘xshashliklarga ega bo‘lganidek, o‘zaro qarama-qarshiliklariga ham egadir. Qarama-qarshilik so‘zi adabiyotshunoslik ilmida **kontrast** istilohi bilan yuritiladi. Kontrast fransuzcha *contraste* so‘zidan olingan bo‘lib, “keskin qarama-qarshi qo‘yish” degan ma’noni anglatadi. Badiiy adabiyotda tasvirlanayotgan voqea-hodisa yoki shaxs-narsalarni bir-biriga keskin qarshi qo‘yish kontrast san’atini namoyon etadi. Qadimgi davr adabiyotshunosligidan beri eng ko‘p qo‘llaniladigan bunday usul asar syujetini yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Badiiy asar voqealar rivoji hamda personajlar tasvirida tasvirlanayotgan narsani bo‘rttirib ko‘rsatish imkonini beradi. Kontrast badiiy asarning barcha sathlarida namoyon bo‘la olishi bilan yozuvchi uchun qulay usul hisoblanadi. Nasriy adabiyotlarda kontrastning ikki yirik turi ko‘rsatiladi: syujetlararo kontrast hamda kompozitsion kontrast. Syujetlararo kontrastda voqealar yoki holatlar bir-biriga zidlansa, kompozitsion kontrastda asarning bir qismi ikkinchi qismiga qarshi qo‘yiladi.

O‘zbek romanchiligini boshlab bergan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qiziqarli va o‘z navbatida ziddiyatlarga to‘la syujeti bilan ajralib turadi. Otabek va Kumush muhabbati tasvirlangan bu asarda Qodiriy kontrastdan mohirona foydalangan. Julqunboy asar qahramonlarining ziddiyatli nuqtalarini tasvirlashda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

milliylik, an’anaviylikdan foydalangan. An’anaviy uslubga ko‘ra ijobiy qahramonlar chiroyli sifatlar bilan, salbiy obrazlar xunuk ifodalar bilan tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar” romanida qahramonlar tasviri an’anaviy usulda, ya’ni yaxshi xulq-atvorli qahramonlar xushbichim qilib tasvirlangan. Salbiy qahramonlar yomon sifatlar bilan birga xunuk aft-angor bilan yoritilgan. Masalan, bosh qahramon bo‘lmish Otabek qiyofasi “*Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit*” [1.1] chizgilari bilan chizilsa, asardagi salbiy qahramon bo‘lgan Homid “*uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi* [1.2]” so‘zlari bilan tasvirlanadi. Otabek shaxsiyatida vazmin, teran fikrlovchi, yosh bo‘lishiga qaramay o‘zini bosib olgan kishini ko‘ramiz. U faqat siyratda emas, suvratda ham ko‘rkam. Uning tashqi ko‘rinishi qop-qora qosh-ko‘zlari oq yuziga yarashgan, endigina sabza urayotgan soqol-mo‘ylovi uning ayni kamolga, kuch-quvvatga yetilgan paytda ekanligidan darak beradi. Tana tuzilishi ham baquvvat ekanligi personajga yana-da ulug‘vorlik baxsh etadi. Homid tasvirida ishlatilgan *qora cho‘tir yuz-u chag‘ir ko‘z* buning ustiga *chuvoq soqolli ko‘rimsiz* kishi Otabekdek *ko‘rkam va oq yuzlik, qora ko‘zga mutanosib bo‘lgan qora qoshlik* husndor yigit bilan siyratda bahslash olmasligidan dalolat beradi. Muallif yaxshi xislatga ega bo‘lgan obrazlar ta’rifini jimjimador so‘zlar orqali ifodalaydi. Yomon xulqli qahramonlarni ta’riflashda qisqalikdan foydalanadi. Asarning ijobiy qahramoni bo‘lgan Kumush latif so‘zlar bilan: “*qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi‘atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi...*” [1.14] ta’riflansa, Kumushga qarshi qo‘yiladigan Zaynab obrazi: “*qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik*” sifatleri bilan tashqi ko‘rinishi tavsiflanadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida foydalangan zidlanishni 3 guruhga: 1)obrazlararo zidlanish, 2)holatlararo zidlanish, 3) asar qismlari aro zidlanish. O‘z navbatida obrazlararo zidlanishni qahramonlar ismlari va ularning asarda bajargan vazifasiga ko‘ra ikki guruhga ajratib tahlil qiliniladi.

“O‘tkan kunlar” romanida ismi jismiga mos bo‘lgan obrazlar yetarlicha topiladi: Otabek – shahzoda, ilg‘or, obro‘- e’tioborli, nasl-nasabli bola;

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yusufbek – Yaqub payg‘ambarimizning farzandi, husnda tengsiz Yusuf alayhissalomning ismi, go‘zallik, hushro‘ylik timsoli. Asarda yurt otasi, insoniylikning kamolot cho‘qqisiga yetishgan kishi sifatida tasvirlanadi;

Alim – bilimdon, zakovatli, aqlli;

Kumush – kumush singari yorqin, bebaho, qadrlı va bu ro‘yxatni ancha davom ettirsa bo‘ladi. Asarda shunday obrazlar borki, ismi jismiga mos kelmaydi:

Homid – shukr qiluvchi, qanoat qiluvchi, sabr toqatli degan ma‘nolarni ifodalab, Muhammad s.a.v.ning sifatlaridan biri hisoblanadi. Asarda esa Homid obrazi ichi qora, xotinboz, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida har qanday razilliklardan bosh tortmaydigan salbiy qahramonni tasvirlaydi. Abdulla Qodiriy dastlab ta‘limni eski maktabda olgani, buning ustiga muallif yashagan zamonda diniy bilimlar yaxshi rivojlangani hisobga olinsa, bu ismning ma‘nosi bejiz tanlanmagan. Ismiga nomunosib bo‘lgan Homid Qodiriyning yozuvchilik mahoratidan dalolat beradi. Homiddek kimsalar ismiga zid tarzda nafi va moddiy ehtiyojlari yo‘lida Yaratganning buyruqlaridan chetlashib, nafi kishisiga aylanishi go‘zal tarzda yoritilgan.

Yana, Homidning qabih ishlarida yordam berib yurgan va bundan moddiy manfaat ko‘rgan Sodiq obrazi ham ismiga nomunosib qahramonlar sirasiga kiradi. Ismlar ma‘nosiga oid lug‘atlarda “Sodiq – vafodor, ishonchli, rostgo‘y” degan ma‘nolarni beradi. Shuningdek, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning muborak sifatlaridan biridir. “O‘tkan kunlar” romanidagi Sodiq esa faqat Homid xo‘jasiga “sodiq”. Shu sodiqligi ortidan uylanib, mo‘may daromadli ham bo‘lgan. O‘z nafiiga Sodiq bu yigit o‘zi tanlagan yo‘lida vafot etdi.

Tomteshar Mutal polvon ham Qodiriyning kontrastlaridan biridir. Alloh taoloning sifatlaridan biri hisoblangan bu sifat aslida “ulug‘, oliy, yuksak didli” degan go‘zal ma‘nolarni ifodalaydi. Ammo Homidning chirkin rejalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi bu obraz ismiga qarshi tarzda gavdalanadi. Insonlarni zor qaqshatib yashaydigan bunday kimsalarning yakuni ham ayanchli.

Asarda xat tashuvchi vazifasini bajargan Jannat obrazi ham salbiy obrazlar qatoridan joy egallaydi. Jannat go‘zal xotima egalarining joyidir. Barcha insonlar vafotlaridan keyin borishni orzu qiladigan, hayoti davomida unga intiladigan aziz joydir. Romanda esa, Jannat obrazini *yerdan bichib olg‘andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin* [1.95] so‘zlari bilan ta‘riflaydi. Hech qanday bejirim so‘zlar bilan ta‘riflanmagan Jannat obrazi o‘ziga o‘xshagan

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ochko‘z, ishyoqmas o‘g‘il tarbiyalaydi. Jannat opa Homidning Otabek tilidan yozgan soxta taloq xatini tashuvchi sifatida gavdalanadi.

“O‘tkan kunlar” romanida Kumushning yosh umri xazon bo‘lishiga Zaynabni aybdor sifatida ko‘rsatiladi. Ammo sevib-sevilmagan Zaynab kundoshidan qutulish uchun uni zaharlaydi. Otabekning muhabbatiga erishmoq uchun bu ishga qo‘l uradi. Lekin uning bu xatosi bir oilaning barbod bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Zaynab ismi “kelishgan, go‘zal hamda gullardek nafis” ma’nolarini anglatadi. Muhammad payg‘ambarimizning qizlaridan birining ismi ham Zaynab bo‘lgan. Julqunboy o‘z romanida salbiy qahramonlarga tanlagan ismlari orqali ism har doim ham inson taqdirini hal qilmasligini isbotladi.

“O‘tkan kunlar” romani xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhit haqida ham hikoya qiladi. ““Navo” kuyi” sarlavhasi ostida berilgan bo‘lim holatlararo kontrastga yorqin misol bo‘la oladi: *“Xalqimiz ta’biricha, bu zamonlar «musulmonobod» bo‘lsa-da, biroq bu tantanalik ta’birni buzib qo‘ya-turg‘an ishlar ham yo‘q emas edi. Xon musulmon, bek musulmon, xalq musulmon, buning ustiga yurish-turish ham musulmoncha, hukmlar ham shari’atcha edi. O‘g‘irliq qilg‘an uchun qo‘l kesiladir va yo dorg‘a osiladir. Zoni bilan zoniylar ham peshtoqdan tashlanadirlar, ichkulik ichkan uchun qirq darra uriladir. Rais afandi mulozimlariga darra ko‘tartirib, namozsizlarni tekshiradir, farzi ayn bilmaganlarni urdiradir edi. Ish shunchalik nozik bo‘laturib ham o‘g‘rilar o‘z tirikliklari orqasidan qolmaydirlar. Esh aka bilan Tosh aka-ning uylari orqasidan teshilib mollari o‘g‘irlana beradir, peshtoqdan qopqa bo‘g‘ilib tashlanmoq uchun fohishalar ham yetishib turadirlar. Butun umrida peshonasi sajda ko‘rmaganlar ham ko‘b, ammo farzi aynning bosh tomonidan to‘rt-besh jumlaning har kim qiynalmasdan sayriy olar edi [1.122]”*. Qodiriy kontrast san’ati orqali xalqning o‘sha davrdagi qiyofasini ochib bergan.

Holatlararo zidlanish asarda peyzaj tasvirlangan sahnalarda ro‘y beradi. Ikkinchi marta uylanish xabarini olib borayotgan Otabek yangilanish fasli bo‘lishiga qaramay ko‘mg‘lida qishning izg‘irini hukm surishi tasvirlanadi. Yoki Otabek Marg‘ilonga kelganida karvonsaroydagi holat ham bir-biriga o‘zaro zid. Karvonsaroy ahli kunduzgi ishlaridan bo‘shab o‘z hujralariga qaytib, o‘z yumushlari bilan bandligi tasvirlanadi. Karvonsaroy ahlining bir-birlari bilan shaqillab so‘zlashishi-yu ularning hujralaridagi kiygiz-qora charog‘ lampalar qo‘yilgani aytiladi. Otabek shu karvonsaroydagi hujrada yashayotgan bo‘lsa ham uning hujrasi boshqa hujralardan boshqacha: yeriga qip-qizil gilam to‘shalib, uyning to‘rt tarafiga ipak-adras ko‘rpachalar yozilgan, sham yonib turishi tasvirlanadi. Ikkita hujrada ikki xil holat taqqoslash-zidlash orqali ochib berilgan.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Voqealararo kontrast Otabek hayotidagi to‘y marosimida go‘zal tarzda o‘zini namoyish etadi. Otabekning Kumushga uylanishi Qodiriy tomonidan mufassil tasvirlansa, Toshkentdagi uylanishi esa bir devona obrazi orqali aytib ketiladi.

Asar kompozitsiyasi, ya’ni tuzilishi jihatdan mukammallikka ega. Asarda kompozitsion kontrast opa-singil Xushro‘y va Zaynabning fe‘l-atvori ta’rifida ochiq ko‘rinadi. *“Garchi bu ikki egachi-singil bir qorindan talashib tushkan bo‘lsalar ham, sajiya — xarakterda tanib bo‘lmasliq darajada birbirlaridan farqlik edilar. Sajiya dagina emas, surat va siymo vajida ham katta o‘zgaliklari bor edi.[1.206]”* Ikki opa singil tashqi ko‘rinishi-yu xarakter jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xushro‘y uzun bo‘yli, qotmaroq va bug‘doy rangli deya ta’riflansa, Zaynabning bo‘yi qisqa, tanasi oq va to‘lachadan kelganligi yoziladi. Siyrati ham bir-biriga zid: Xushro‘y nima xohlashini yaxshi biladigan, xohlagani bo‘lmaguncha harakat qiladigan, hammaga aytganini qildiradigan, serharakat va tez lavzli “shaddod” qiz. Zaynab bo‘lsa bosiq tabiatli, o‘ziga ishonchi kam, xohishlarini ochiq bildirolmaydigan, ichimdagini top deydigan, o‘nta gapga arang bitta javob beradigan “pismiq” qiz. Zaynab o‘z xohishini so‘nggi paytga qadar ichida saqlash xarakteri ko‘p vaqtda pand bersa-da, bundan voz kechmaydi.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yozishda asar voqealariga sarlavha qo‘ygan. Har bir sarlavha biror voqeani, hodisani ochuvchi eshik vazifasini o‘taydi. “Baxt va baxtsizlik” deb nomlangan sarlavhada ham zidlanishdan foydalangan.

O‘zbek romanchiligini boshlab bergan “O‘tkan kunlar” romani o‘zining qiziqarli va ziddiyatlarga to‘la syujeti bilan ajralib turadi. Romanda kontrastni turli qismlarda uchratishimiz mumkin. Personajlar nutqi-yu tashqi ko‘rinishigacha, asar voqealari kechadigan joy-u holatigacha, siyosiy vaziyat-u ijtimoiy qatlamning turmush tarzigaacha ziddiyatlarga boy qilib tasvirlanadi. Qarama-qarshiliklar Julqunboyning yozuvchilik mahorati yuksakligidan darak beradi. Asar qahramonlarining oila jamiyat haqidagi o‘y-fikrlari ham kontrast usuli orqali ifodalangan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani zamonaviy roman lekin unga an’anaviy didaktik ruh jo bo‘lgan. Asarning asosiy qahramoni bo‘lgan Otabekning oila borasida er-xotin munosabatlari, erning xotinga, xotinni bo‘lsa erga muvofiq bo‘lishi, ularning bir-biri ustidagi haqlari haqidagi qarashlari, shuningdek, davlat boshqaruvi haqida esa ruslarning idora ishlari xususidagi ijobiy fikrlari ham muallifning naqadar mahorat egasiligidan dalolat beradi. Asarda onomastik so‘zlardan mohirona foydalanadi. Qahramon ismlari ularning asarda bajargan vazifasiga ko‘ra ma’no-mazmun ifodalaydi. Salbiy qahramonlar salbiy ismlar bilan emas, ma’noli, jarangdor ismlar bilan gavdalanadiki, bu ichki kontrastni yuzaga chiqaradi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlodi, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. “O‘tkan kunlar” ibrati.- T.:MASHHUR-PRESS. Toshkent-2019
5. Karimov B.“O‘tkan kunlar” va germeneytik tafakkur.- T.:“Akademnashr”, 2014.
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Quronov A.va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.- T.:“Akademnashr”, 2010.